

**QORAQALPOG'ISTON  
RESPUBLIKASI  
VAZIRLAR KENGASHINING  
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN  
RESPUBLIKASI  
MINISTRLER KENESININ  
QARARI**

2023 - yil 3 - noyabr

386-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi  
Vazirlar Kengashi

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Mo'ynoq tumani "Madeli" OFY hududidan  
doimiy foydalanish huquqi asosida yer maydoni ajratish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 3-moddasi, "Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunining 35-moddasi va "Yer to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunining 4-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi "Yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi 543-son qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-martdagi "Yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqi uchun ruxsatnomalar berish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 133-sonli qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 26-iyunda tasdiqlangan 118-sonli bayonining 39-bandi ijrosi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Tog' kon sanoati va geologiya vazirligining 2023-yil 19-maydagi 10-4696-sonli buyurtma xatini inobatga olib, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi qaror qiladi:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Qurilish vazirligi va vakolatli tashkilotlarning ijobiy xulosalari hamda kelishuvlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Mo'ynoq tumani "Madeli" OFY hududidagi tuman hokimligi zaxira yer fondida turgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan, "Oqqal'a" mirabilit istiqbolli maydonida geologik o'rganish ishlarini olib borish uchun jami 100,0 gektar yer maydonlari ilovaga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Tog' kon sanoati va geologiya vazirligiga doimiy foydalanish huquqi asosida ajratib berilsin.
3. O'zbekiston Respublikasi Tog' kon sanoati va geologiya vazirligidan O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 26-iyunda tasdiqlangan 118-sonli bayonining 39-bandi ijrosini qonunchilikga muvofiq ta'minlash choralarini ko'rish so'rahsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi mazkur qarorga muvofiq yer fondiga o‘rnatilgan tartibda tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o‘rinbosari Sh.Dauletiyarov zimmasiga yuklansin.

**Qoraqalpog‘iston  
Respublikasi Vazirlar  
Kengashi Raisi**



**F. Ermanov**

Qoraqalpog'iston Respublikasi  
Vazirlar Kengashining  
2023-yil 3-noyabrda  
386-13-0-Q/23-son qaroriga  
1-ilova

O'zbekiston Respublikasi davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasiga  
Madeli OFY, xududi yer qa'ridan foydalanish uchun tanlangan yer uchastkasining  
**T A R X I:**



Yer uchastkasi haqida qisqacha ma'lumotlar: Yer uchastkasi zaxira yer maydonlaridan bo'lib, sharq tarafi, g'arb, shimol va janub taraflari bosh xo'jaligi yer maydonlari.

**WGS-84 Koordinatasi**

1. 43°49'12,13"C 59°25'48,71"B	3. 43°48'39,28"C 59°26'32,40"B
2. 43°49'7,20"C 59°26'38,67"B	4. 43°48'44,60"C 59°25'40,63"B

Tuman markazidan 34 km radius masofada

Yer uchastkasi maydoni (ga): 100,00 ga

Yer fondi: Tuman zaxira yer

Ta'qiqlanganligi: Yo'q

Qaysi maqsadda foydalansa bo'ladi: *Yer qa'ridan foydalanish uchun*

Yer turi: Qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar

Ball boniteti: Baholanmagan



Shartli belgilar  
Airtatilan yer chegarasi